



XALQ DEPUTATLARI JOMBOY TUMANI KENGASHINING

QARORI

2024-yil 9-aprel

VI-101-53-7-94-K/24

Jomboy tumani

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish holatini o'rganish natijalari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-yanvardagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-15-sonli Farmoni, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Kengashining va Oliy Majlis Senati Kengashining 2023-yil 13-dekabrda 3787-IV/KQ-642-IV-sonli Qo'shma qaroriga hamda O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunining 6-, 24- moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, yuzinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish holatini o'rganish natijalari to'g'risida, xalq deputatlari Jomboy tuman Kengashi deputati, ishchi guruhi rahbari O'.Najmitdinovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ishchi guruhning quyidagi takliflari ma'qullansin:

- tumandagi "N.Esonturdiyev massivida "Jomboy Yuksalish G'alla Klasteri" MChJ va "Sattarov Alisher Green" fermer xo'jaligi o'rtasidagi qayta ijara shartnomaga asosan 13,0 gektar, M.Ulug'bek massivida "Jomboy Yuksalish G'alla Klasteri" MChJ va "Nazar Agro Biznes" fermer xo'jaligi o'rtasidagi qayta ijara shartnomasiga asosan 15,7 gektar, "Buyuk kelajak agro klasteri" MChJ va "Jomboy Yuksalish G'alla Klasteri" MChJ o'rtasidagi qayta ijara shartnomasiga asosan 24,7 gektar, X.Nizamatov massivida "Yusufjon Azimov Yeri" fermer xo'jaligi va Egamberdiyeva Malika Abdinabiyevna o'rtasidagi qayta ijara shartnomaga asosan 6,3 gektar, Jomboy massivida "Shaxzod Baxriddinov bog'lari" fermer xo'jaligi va Axrarov Tolibjon Asrorovich o'rtasidagi qayta ijara shartnomaga asosan 12,7 gektar yer maydonlariga Jomboy tuman hokimi va yerdan foydalanuvchi o'rtasida ijara shartnomasini tuzish (ijara shartnomasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish).

3. Tuman hokimligi qonunchilikda belgilangan tartibga qat'iy rioya etgan holda:

- N.Esonturdiyev massivida "Jomboy Yuksalish G'alla Klasteri" MChJ va "Sattarov Alisher Green" fermer xo'jaligi o'rtasidagi qayta ijara shartnomaga asosan 13,0 gektar, M.Ulug'bek massivida "Jomboy Yuksalish G'alla Klasteri" MChJ va "Nazar Agro Biznes" fermer xo'jaligi o'rtasidagi qayta ijara shartnomasiga asosan 15,7 gektar, "Buyuk kelajak agro klasteri" MChJ va "Jomboy Yuksalish G'alla Klasteri" MChJ o'rtasidagi qayta ijara shartnomasiga asosan 24,7 gektar, X.Nizamatov massivida

“Yusufjon Azimov Yeri” fermer xo‘jaligi va Egamberdiyeva Malika Abdinabiyevna o‘rtasidagi qayta ijara shartnomaga asosan 6,3 gektar, Jomboy massividagi “Shaxzod Baxriddinov bog‘lari” fermer xo‘jaligi va Axrarov Tolibjon Asrorovich o‘rtasidagi qayta ijara shartnomaga asosan 12,7 gektar yer maydonlariga tuman hokimi va yerdan foydalanuvchilar o‘rtasida ijara shartnomasi (ijara shartnomasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish) tuzilsin.

4. Kadastr agentligi tuman bo‘limi (F.Ishmirzayev) ijara shartnomasi tuziladigan (qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritiladigan) yer uchastkalari bo‘yicha kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish, yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlarni kiritish choralarini ko‘rsin.

5. Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (A.Ikramov)ga:

- mazkur qarorning ijrosini ta‘minlash borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida har oy yakuni bo‘yicha keyingi oyning 5-sanasiga qadar xalq deputatlari Kengashiga axborot kiritib borsin;

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (R.Norqulov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



SOBIROV KAYUM
XAMRAYEVICH